

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR QAHRAMONLARINING IJOBIY
FAZILATLARINI BOLA ONGIGA SINGDIRISHDA O'QITUVCHINING ROLI****Xolyigitova Baxor Kimsanboyevna****Guliston davlat universiteti, Pedagogika fakulteti,
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi****Mustaqil tadqiqotchi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831419>**

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asar qahramonlarini tanishtirish hamda ularning ijobiy fazilatlarini uqtirishda o'qituvchining roli tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy asar, ijobiy xislat, mutolaa, boshlang'ich sinf, kitob.

KIRISH

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlovchi jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi. "Kompetentlik" so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetensiya- shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi.

Psixologik nuqtai nazardan shaxs xarakteri tasodifiy ko'zga tashlanadigan xususiyat bo'lmay, uning o'zigagina xos bo'lgan doimiy, barqaror xususiyat sanaladi. Badiiy asarlar ta'sirida shaxsda milliy xarakter xislatlarini rivojlantirishda qahramonlar qiyofasida aks etadigan sifatlar, ularning ijobiy va salbiy mazmunga egaligi, o'quvchilarda hissiy munosabatlarni uyg'ota olish imkoniyati hisobga olinadi. Jumladan, badiiy asar qahramoni timsolida namoyon bo'layotgan mardlik, sabotlilik, rostgo'ylik, sofdillik kabi xislatlarning o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlari yuqori. Ammo bu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, badiiy asarlar qahramonlarining manmansirash, o'z shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatlaridan ustun qo'yish, xudbinlik, yolg'onchilik, atrofdagilarni mensimaslik kabi illatlarga ega ekanliklari ham o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ularning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchilar badiiy qahramon obrazida in'ikos etayotgan illatga nisbatan o'z munosabatini bildiradi, ulardan nafratlanadi, ba'zan shaxsiy tasavvurlar orqali ular bilan kurash olib boradi. Demak, bir so'z bilan aytganda salbiy obrazlar ham o'quvchilarning hissiyotini tarbiyalaydi.

Adabiy ta'lim yoki ta'lim muassasasidan tashqari sharoitda o'quvchilarni milliy hayot tarzi, milliy qadriyatlar mazmunini yorituvchi badiiy asarlar bilan tanishtirishda qahramonlar

timsolida ijobiy fazilat va salbiy xislatlarning qay darajada aks ettirilganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, shaxs hayoti va faoliyati jarayonida uning qiyofasida aks etadigan barcha ijobiy fazilat hamda salbiy illatlar ham har doim ham xarakter xislatlari sifatida namoyon bo'lavermaydi. Jumladan, agarda asar qahramonining ma'lum vaziyatdagi xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, atrofdagilar bilan munosabati, o'zini tuta bilishi yuzasidan so'z yuritilganda "u mardlik qildi", "beqiyos saxovat, mehr-muruvvat ko'rsatdi", "uning bu ishi nomardlikdan o'zga narsa emas edi", "u atrofdagilarga nisbatan adolatsizlik qildi" degan iboralar ishlatiladi. Biroq, mazkur iboralar shaxsning mard, saxovatli, nomard yoki adolatsiz ekanligini anglatmaydi. Balki uning shaxsi muayyan vaziyat nuqtai nazaridan baholanadi. Mardlik, saxovatlilik, nomardlik yoki adolatsizlik kabilarning aynan badiiy asar qahramoniga xos xarakter xislati sifatida ta'riflanishi uchun u talqin etilayotgan voqelikning umumiy jarayonida, turli vaziyatlarda ham ana shu sifat yoki illat sohibi ekanligi ko'rsatib berilishi zarur. Asar muallifi tomonidan qahramon shaxsining xarakter xususiyatlarini yaqqol ko'z oldiga keltirilganligi, uning muayyan sharoitlardagi xatti-harakatlari mohiyatini oldindan to'g'ri taxmin qilinganligi o'quvchilarda xarakter xislatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Badiiy asarlar va ularda surilgan g'oyalar nuqtai nazaridan tahlil qilinganda qahramonlarning o'z faoliyatlarida, shuningdek, atrofdagilarga bo'lgan munosabatlarida aniq maqsadni ko'zlay olishlari, maqsadga erishishning samarali va ta'sirchan yo'l, vositalarini muvaffaqiyatli tanlay olishlari ular xarakterida irodaviy xislatlar namoyon bo'lishidan dalolat beradi. Binobarin, bu kabi xislatlarga ega shaxslargina o'z xatti-harakatlari, faoliyati natijalarini oldindan ko'ra oladilar, shu bois ularni avvaldan rejalashtirish, bashoratlashning uddasidan chiqadilar. Bunday qahramonlar asrlar davomida xalq tomonidan qo'llab kelinayotgan "yetti o'lchab bir kes", "sanamay sakkiz dema" tarzida ish ko'radilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Psixologik-pedagogik kompetentlikning asosini pedagogning turli yosh guruhlari bosqichida o'quvchi shaxsining rivojlanish qonuniyatlariga rioya etgan holda ta'sir etuvchi faol bilimi va harakati tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan kasbiy kompetensiya pedagoglarning faoliyatidagi yetuklik ko'rsatkichi hisoblanib, mutaxassisning muloqot jarayonida shaxs hamda mutaxassis sifatida shakllanishida asosiy omil bo'la oladi. Demak o'quvchilarga badiiy asar qahramonining ijobiy xislatlarini yetkazib berish va tahlil etishda pedagoglarning kasbiy kompetentligi muhim omil ekanligini unutmaslik lozim.

References:

1. Xalilova Sh.T. O'spirin-o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: Avtoref. diss. kand. ped. nauk. - T.: 2011. - 22 b.
2. Shodieva Z. Milliy qadriyatlar va mashhur tarixiy shaxslar o'spirin- o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositasi // Xalq ta'limi j. - T.: 2012. 1-son. - 46 b.
3. Shoniyoov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni // Tahrir hay'ati: D.A.Alimova va boshq. - T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 2013. - 464 b.
4. Tolboeva F Hikoyalarda milliy xarakter inikosib "Til va Adabiyot ta'limi" 2012-yil 5-son.
5. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.
6. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с

учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.

7. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.

8. Ганиева, М. (2021). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ “ТРИЗ” ДЛЯ РАЗВИТИЯ УЧЕНИКИ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА. Academic research in educational sciences, 2(5), 129-133.

9. G'aniyeva, M. (2021). BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA TRIZ (IXTIROCHI MASALALARINI HAL QILISH NAZARIYASI) DASTURINI QO'LLASHNING SAMARALI USULLARI. Scientific progress, 2(5), 108-112.

10. Ганиева, М. А., Муродинова, Н. Р., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Трудности при изучении многозначных глаголов русского языка учащимися-узбеками средних общеобразовательных школ. Проблемы педагогики, (3 (35)), 108-109.

11. Kizi, G. M. A., & Kizi, B. L. A. (2018). The diversities in terminology of relationship. Достижения науки и образования, (9 (31)), 22-23.

12. Ганиева, М. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА. СЪЗ САНЪАТИ ЖУРНАЛИ JOURNAL OF WORD ART ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 12